

O'ZBEKISTONFA KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI TURISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Yaxyoyeva Umida Shavkat qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Jinoiy odil sudlov fakulteti,

1-boshqich talabasi A-1 guruh talabasi.

Tel: +998 (77) 078-44-17, +998 (95) 042-44-17. @yaxyoyevaumida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14222470>

Korrupsiya - hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoiy hodisaning nisbatan ko'p tarqalgan va o'ziga xos hodisasi hisoblanadi. Ushbu jinoyat asosan davlat mansabdor shaxslarining o'z manfaati yoki o'zgarar manfaati uchun pora berishi yoki pora olishida aks etadi. Hozirda, korrupsiya nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda global bo'lib qolmoqda. Bunga asos sifatida 2003-yil Nyu-Yorkda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini keltirish mumkin.

Mazkur Konvensiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) Yanada samarali va ta'sirchan ravishda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish hamda mustahkamlashga ko'maklashish;
- b) Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda, shu jumladan aktivlarni qaytarish borasida xalqaro hamkorlik hamda texnik yordam ko'rsatilishini rag'batlantirish, osonlashtirish va qo'llab-quvvatlash;
- c) Halollik va sodiqlik, mas'uliyatlilik hamda ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni talab darajasida boshqarishni rag'batlantirish.

Korrupsiyaga qarshi turishning huquqiy mexanizmlari deganda ushbu jinoyatning oldini olish, aniqlash va qarshi kurashish uchun qabul qilingan huquqiy hujjatlar, qonunlar, ularning normalari hamda milliy va xalqaro miqyosda qabul qilingan organ, tashkilotlar tushunilishi kerak.

Birinchidan, O'zbekistondagi korrupsion holatlarni tahlil qilishdan oldin korrupsion jinoyat turlarini aniqlashtirib olsak maqsadga muvofiqdir. Korrupsiyaga oid jinoyatlar quyidagilardir:

1. Mansab mavqeyini suiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata;
2. Xizmat mavqeyidan foydalanib firibgarlik sodir etish;
3. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish;
4. NNT yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish;

5. NNT yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini g'arazgo'ylik noyatida suiste'mol qilish;
6. G'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish;
7. G'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan hokimiyat harakatsizligi;
8. G'arazgo'ylik niyatida sodir etilgan mansab soxtakorligi;
9. Pora olish;
10. Pora berish;
11. Pora olish-berishda vositachilik qilish
12. Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish;
13. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi;
14. Og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan holda hokimiyatni suiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi;
15. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (agar jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarga nisbatan sodir etilgan bo'lsa).

Korrupsiyani yengishdagi O'zbekiston yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda korrupsiya holatlari yildan yilga kamayib borayotgan bo'lsada, korrupsiya hali tag-tomiri bilan yo'q qilingani yo'qligi real faktdir.

Tahlilchilar 2023 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistondagi korrupsiyaga qarshi kurashish darajasini 100 balldan 33 ballga baholagan. Bu – bir yil oldingiga qaraganda 2 ballga yuqoriroq.

Shuningdek, O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash reytingidagi o'rni ham 5 pog'onaga yuksalib, 180 ta davlat orasida 121-o'rinni qayd et etgan. 2022-yilda mamlakatimiz 126-o'rinni qayd etganligidan ma'lumki, shu bir yil noichida korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurash o'z samarasini ko'rsatgan. Ushbu reytingda O'zbekistonning avvalgi yillardagi o'rni haqida ma'lum qilsak, 2021-yilda 140-o'rin, 2020-yilda 146-o'rin, 2019-yilda 153-o'rin, 2018-yilda 158-o'rinni tashkil etgan. Bu O'zbekistonda korrupsiya holatlari ijobiy tomonga qarab o'zgarganining yaqqol isbotidir.

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining 2020-yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar statistikasiga ko'ra, sudlar tomonidan korrupsiya bilan bog'liq jami 2270 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. **2021-yilda esa 5483 nafar shaxsga** nisbatan 3 769 ta korrupsiyaviy jinoyat ishlari sudlarga oshirilgan. O'tgan yili respublika bo'yicha jami 6 535 nafar shaxs (**2022**

yilda 7 414 nafar) korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, 2022 yilga nisbatan javobgarlikka tortilganlar soni 879 nafarga yoki 12 foizga kamaygan. Bundan ma'lumki korrupsiyaviy jinoyat ishlari 2021-2022-yilda keskin oshgan. **Bu haqida Senat raisi Narbayaev Tanzila Kamalovna shunday deydi:** «Sudlarga yuborilgan jinoyat ishlarining har uchtadan bittasi sog'liqni saqlash, ta'lim va bank tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilgan keskin choralar natijasida sudga yuborilgan jinoyat ishlari soni o'tgan yilga nisbatan bank sohasida 300 foizga, ta'lim tizimida 120 foizga hamda sog'liqni saqlash sohasida 100 foizga ortgan».

2023-yilda korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslar soni **Andijon, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida oshgan.** Eng ko'p sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan bilan talon-toroj qilish - 2 067 (2 145), pora berish – 894 (1 061), firibgarlik – 769 (937), pora olish -121 (155) va hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 125 (117) hisoblanadi. **Shunga qaramay, 2022-2023-yillar hisobida korrupsiyaga oid jinoyatlar 12%ga kamayganini ko'zdan qochirmaslik kerak.**

Ikkinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashda jarayonida isloh qilinayotgan huquqiy mexanizmlarga to'xtaladigan bo'lsak, davlatimiz boshlig'i Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: «Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi». Aynan manashu yovuz illat deya tavsiflanayotgan korrupsiyani oldini olish, aniqlash va unga qarshi kurashish uchun qator qonunlar qabul qilinib, amaliyotda qo'llanilmoqda. Xususan asosiy qonunimiz Konstitutsiyaning 93-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish vakolati belgilab qo'yilgan. Bu shuni anglatadiki, Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini nazorat qilib turadi va keyinchalik shu masalada taklif va tavsiyalar beradi. Bunga misol sifatida Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini keltirish mumkin. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. **Bundan tashqari,** respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat olib boruvchi qator davlat organlari ham mavjud. Bular quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Shuningdek, «Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunning 14-moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. Unga ko'ra fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolar :

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

2. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

6. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarning samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi va u hozirgacha o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda **Shuningdek**, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

• 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

• Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi **E-Anticor.uz elektron platformasini** joriy etish;

• Korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda ham o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

“2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida” gi Konvensiyasi;

1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi**, shuningdek, 2010 yilda **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini** ratifikatsiya qilgan.”¹

Umumiy olib qaraganda, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida nafaqat respublika miqyosidagi balki xalqaro miqyosdagi qonunlar, tajribalarni qo'llamoqda, turli xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan holda, ularning amalda bo'lishini ham ta'minlamoqda.

Korrupsiya qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham samarasiz ketmayapti. Hozirda, davlatimiz olib borayotgan qat'iy siyosati tufayli korrupsiyaga oid jinoyatlar nisbatan kamaymoqda va bu bizning ushbu jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ijobiy yutug'imiz hisoblanadi. Fikrimizcha har qanday jinoyatni yo'q qilish uchun, avvalombor uning kelajakda takrorlanish darajasini pasaytirish ya'ni oldini olish choralari ko'rish kerak, shu jumladan korrupsiyani ham.

Ushbu borada o'z takliflarimni kiratagidan bo'lsam, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini bosqichli amalga oshirgan ma'qul. Ya'ni jamiyatimiz a'zolarining bolaligidan korrupsiya tushunchasini va uning xalq manfaatlarini yemiruvchi illat ekanligini turli xil bolalarga xos ko'rsatuvlar va multfilmlar orqali ongiga singdirish maqsadga muvofiqdir.

¹ Sh. Kulturayev, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari.

O'smirlik vaqtida ularni korrupsiya haqida chuqurroq o'rganish va bu haqida maqolalar yozib, korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib qilish borasida turli ommaviy tadbirlarni o'tkazishini rag'batlantirish kerak bo'ladi.

Keyinchalik, ularning korrupsiyaga qarshi kurash jarayonida bevosita o'z hissasini qo'shish, hayotdagi korrupsiyaviy jinoyatlarga qat'iyan qarshi turish va jamiyatning boshqa a'zolarini ham ushbu jinoiy jarayondagi ishtirokini oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Bunga qo'shimcha ravishda, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari bilan bir safda fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashda olib borgan chora tadbirlarini rag'batlantirish kerak.

Shuningdek, korrupsiya holatlari ko'proq ta'lim, sog'liqni saqlash va bank faoliyatida uchrayotganini hisobga olgan holda ushbu muassasalarda korrupsiya holatlarini oldini olish, uni sodir etganlarni aniqlash va qarshi kurashish maqsadida, Korrupsiyaga qarshi kurash organining quyi hududlardagi vakili lavozimini joriy etish ham ushbu jinoyatning kamayishiga ancha hissa qo'shgan bo'lardi nazarimizda.